


7

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**  
**VAZIRLIGI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI**  
**VAZIRLIGI**

**60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti**  
**bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining**

**MALAKA TALABI**

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” 06 dagi 218– sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>11</b>



## 1. Umumiy tavsifi

60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talablari 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari

umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o‘rta ta‘limda o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o‘rta maxsus va professional ta‘limda o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta‘lim muassasasini boshqarish;

umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, professional ta‘lim muassasalari, oliy ta‘limda kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

#### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalarida;





maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi idoralarda;  
 ommaviy axborot vositalari faoliyati jarayonlarida;  
 davlat boshqaruv organlari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, o‘zbek tili va adabiyoti muammolari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda, ommaviy axborot vositalari faoliyati jarayonlarida kompleks ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma’naviy-ma’rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari

60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim.

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari

60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim

#### **Pedagogik faoliyatida:**

**o‘quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O‘Dlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv reja ishlab chiqish, o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, o‘quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko‘ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o‘quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

**ta’lim samaradorligini ta’minlash:** dars maqsadlariga ko‘ra o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to‘g‘ri rejalashtirish, ta’lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalariga ko‘ra darsni tashkil etish va ta’lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o‘quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o‘qitishning faol usullaridan foydalanish, o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, o‘quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalaridan foydalanish, o‘quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga

*Agal*

*Yusef*



erishish;

**o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta‘lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta‘lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta‘lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish;

**tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg‘ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo‘llash, tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta‘lim muassasasining ustavi va ichki tartib-qoidalariga muvofiq o‘quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o‘rnatish, ijtimoiy sog‘lom muhitni yarata olish, o‘quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

**xavfsiz rivojlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratish va ta‘minlash:**

O‘quvchilar orasida o‘zaro hurmat muhitini yaratish, o‘quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o‘quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

**o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish:** muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o‘zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o‘tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish;

**hamkasblar va ta‘lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o‘rnatish:** o‘quvchilarning ota-onalarini

(ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni) ta‘lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o‘quvchilarning ota-onalarini (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni) o‘quvchilarni rivojlanishi va ta‘lim muhiti to‘g‘risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o‘quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

filologik ta‘lim va kasb ta‘limi sohalarida pedagogik ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta‘lim yo‘nalishidagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

filologiya fanlariga doir internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tatbiq etish;

ona tili va o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi va kasbiy ta‘lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

*Handwritten signature*

*Handwritten signature*



ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

o'zbek tili va adabiyoti fanlari va kasbiy ta'lim fanlariga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

kasbiy faoliyatda til va adabiyot fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish,

malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi hamda o'quv darslarida texnika xavfsizligini ta'minlash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari shakllantirilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni hamda mediasavodxonlik, global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy, mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olishi;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini

*Adel*

*Yuliy*



anglashi hamda tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirishi;

o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta’lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallash;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzluksizligini ta’minlash;

inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo‘lishi;

ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik hamda mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatligi.

texnologik jarayonlar bo‘yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Barkamol avlod ijodiyot uylari faoliyatini o‘quv jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish.

Kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi 1-bosqich talabalari o‘quv yilining 2-semestrida “O‘zbek folklori” fanidan 2 haftalik malakaviy (hududlarda) amaliyoti, 2-bosqich talabalari 4-semestr yakunida 2 haftalik “O‘zbek dialektologiyasi” dan malakaviy (o‘z hududida) amaliyot o‘taydi.

Kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi nazariy va amaliy ta’lim 3-8- semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta’lim, 2 kuni umumiy va o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. o‘quv tanishuv amaliyotlari
2. pedagogik amaliyot
3. bitiruv oldi amaliyoti

*Dezil*

*Yevry*



## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy Kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar*</b>			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1, 2
1.02	O‘EYT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.03	MSVAX1104	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.04	IO‘NM1204	Ifodali o‘qish va nutq madaniyati	120	4	2
1.05	FAL1204	Falsafa	120	4	2
1.06	TA1105	Tilshunoslik asoslari	150	5	1
1.07	AA1105	Adabiyotshunoslik asoslari	150	5	1
1.08	O‘F1105	O‘zbek folklori	150	5	1
1.09	HO‘AT1234516	Hozirgi o‘zbek adabiy tili	480	16	2,3,4,5
1.10	O‘A1234516	O‘zbek adabiyoti	480	16	2,3,4,5
1.11	O‘RT1106	Amaliy o‘zbek (rus) tili. Davlat tilida ish yuritish	180	6	1
1.12	PED13408	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.13	InkT.GP1404	Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika	120	4	4
1.14	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.15	JA1304	Jahon adabiyoti	120	4	3
1.16	O‘D1405	O‘zbek dialektologiyasi	150	5	4
1.17	OTO‘M13409	Ona tili o‘qitish metodikasi	270	9	5,6
1.18	O‘AO‘M13408	O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi	240	8	5,6
1.19	UTTVZY1705	Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	7
1.20	AN1704	Adabiyot nazariyasi	120	4	7
1.21	TN1805	Til nazariyasi	150	5	8
1.22	MDO‘A1804	Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti	120	4	8
1.23	O‘TT1704	O‘zbek tili tarixi	120	4	7
		<b>Jami:</b>	<b>4320</b>	<b>144</b>	
2.00.		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-8</b>
2.00.		<i>Tanlov fanlar</i>	1800	60	3-8
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi.</b>			
		<b>Jami:</b>	<b>6320</b>	<b>204</b>	
		Malakaviy amaliyot	<b>1080</b>	<b>36</b>	<b>(3-8)</b>
		<b>Jami:</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\*- Mazkur ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasining tanlov fanlari qismiga “Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)” fani majburiy tarzda kiritiladi. .



**Bibliografik ma’lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so‘zlar:**

Davlat ta’lim standarti, malaka talablari, o‘quv reja. kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi. kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, og‘zaki va yozma shaklda davlat tilining qoida va me’yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

*Sulay*

*Yevgen*



**Kelishuv varag'i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**


**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti**


**Rektor**  **prof. A. Kirgizbayev**

2024-yil « 20 » 06

M.O'.




**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi  
Direktor  **M. Boltabayev**

2024-yil « 25 » 06

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi ta'lim  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi  
Direktor  **Sh. Xudaykulov**

2024-yil « 20 » 06

M.O'.



Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Rektor  **Sh. Sharipov**

2024-yil « 20 » 06

M.O'.



Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Rektor  **G. Muxamedov**

2024-yil « 20 » 06

M.O'.

